

KASB-HUNAR TA'LIM TIZIMIDA FIZIKA FANINI O'QITISHDA SIFAT SAMARADORLIGIGA ERISHISH

Farg'ona ICHSHUI kasb-hunar maktabi
Fizika fani o'qituvchisi
Raupova Raxima

Annotasiya: *Kasb-hunar ta'lim tizimida fizika fanini o'qitishda sifat samaradorligiga erishish haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *fizika fanini o'qitish, kasbga yo'naltirish, sifat samaradorlik, fizika o'qitish, ilmiy dunyoqarash, reproduksiya.*

Bugungi kunda har bir soha va tizim faoliyatini innovatsion g'oyalar va texnologiyalar asosida olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan mavzuga kirishishdan oldin «innovatsiya» so'zining ma'nosiga biroz to'xtalishni lozim topdik. Innovatsiya tushunchasi (lotincha novus yangi) tadqiqotlarda va ilmiy ishlarda XIX asrlarda qo'llanila boshlagan. Avval u alohida elementlarni bir sohadan boshqa sohaga kiritishni ifodalagan. Texnikaviy yangiliklar kiritish qonuniyatlarini o'rganib firmalar foyda olish uchun «innovatsion siyosatni» butun bir tizim sifatida o'zlashtirishdi. Mazkur faoliyat jamiyat hayotining ixtiyoriy bo'g'inini yangilash bo'yicha umumiy belgilarga, qonuniyatlar, yangilik kiritish mexanizmiga ega.

Sivilizatsiyalashgan dunyoning aksariyat mamlakatlarida ham zamonaviy ta'lim holati nafaqat pedagogik tadqiqot usullaridan, balki qo'shni ijtimoiy va tabiiy fanlar usullaridan ham keng foydalanadigan eksperimental pedagogikaga tayanishi bilan ajralib turadi. Zamonaviy pedagogik nazariya va amaliyotda talabalarning shaxsiy faoliyatini rivojlantirish muammosi ayniqsa dolzarbdir. Hozirgi kunda ko'plab o'qituvchilarning e'tiborini o'quv jarayoni eng muvaffaqiyatli bo'lgan sharoitlarni tashkil etish masalalari, shuningdek talabalarning o'qishga bo'lgan doimiy ijobiy motivatsiyasini shakllantirish, shaxsiy o'sishi uchun sharoit yaratish va o'quvchilarning bilim qiziqishlarini rivojlantirish bilan bog'liq masalalar jalb qilmoqda.

Hozirgi kunda ko'plab o'qituvchilarning e'tiborini o'quv jarayoni eng muvaffaqiyatli bo'lgan sharoitlarni tashkil etish masalalari jalb qilmoqda, bizning ishimiz bunga bag'ishlangan.

O'qitish metodikasiga o'ndan ortiq fundamental tadqiqotlar bag'ishlangan bo'lib, ularga asosan ta'lim ishlarining samaradorligi asosan pedagogikaning umumiy nazariyasida ham, xususan alohida fanlarni o'qitish metodikasida ham bog'liqdir. Biroq, pedagogik tadqiqotlarning xilma-xilligiga qaramay, o'qitish metodikasi muammosi dolzarb bo'lib qolmoqda. Hozirga qadar nazariyotchi-o'qituvchilarning o'qitish metodikasining ilmiy

tizimini yaratish va ularni oliy o'quv yurtlarida qo'llashning texnologik yondashuvlarini ishlab chiqishga urinishlari davom etmoqda.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayonda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Interfaol usullar ta'lim jarayonida qatnashayotgan har bir o'quvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish o'quvchi uchun qiziqarli mashg'ulotga aylanadi.

Interfaol usullar qo'llanilganda o'quvchilar o'qituvchilar yordami va hamkorligida mustaqil ishlash ko'nikma va malakalariga ega bo'lalilar. O'quvchilar yangi bilimlarni ilmiy izlanish, tadqiqotchilik, tajriba sinovlar o'tkazish asosida o'zlashtiradilar.

Davlat umummilliy dasturining asosiy maqsadi va vazifalaridan biri - ta'lim muassasalarini malakali o'qituvchilar bilan ta'minlash, ularning salohiyatini oshirish, o'qituvchilar tayyorlash tizimini takomillashtirishdir. Mazkur tamoyilga e'tibor qaratadigan bo'lsak o'qituvchilar uchun katta mas'uliyat, talablar, vazifalar va ishonch mavjudligini ko'ramiz. Bu masalaga davlatimiz mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab jiddiy e'tibor berib kelinmoqda. Maktab, ta'lim-tarbiya masalasi davlat va jamiyat nazoratida bo'lishi asosiy qonunimizda belgilab qo'yilgan. Shu bilan birga, bu keng jamoatchilik, butun xalqimizning ishtiroki va qo'llab-quvvatlashini talab qiladigan umumiy masaladir. Yurtimizda boshlangan islohotlar jarayonini izchillik bilan davom ettirish va mantiqiy yakuniga yetkazish muammolarining asosiy yechimlaridan biri - malakali, fidoyi bakalavr darajasiga ega bo'lgan o'qituvchilarni tayyorlashdir. Bunda ularga quyidagi asosiy talablar qo'yiladi: bakalavr darajasidagi o'qituvchining o'z ishiga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartirish, ularda tashabbuskorlik-pedagogik faoliyatga bo'lgan ijodiy munosabatni shakllantirish shaxsiy javobgarligini oshirish; ularning o'z sohasida kompetentli, ya'ni o'z ishining ustasi bo'lishi, o'z sohasi bo'yicha bilimlarni har tomonlama chuqur bilishi zarurligi. Fizika fani o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda tayanch fan, fizika darslari esa uning vositasi hisoblanadi. O'quvchining dunyoqarashi, tabiat haqidagi tushunchalari fizika fani qonunlarini o'rganish jarayonida amalga oshirilsa, ikkinchidan, bu jarayonda ularga bilim va tarbiya berishda psixo-pedagogik asoslarni hosil qilish davomida amalga oshiriladi. Dunyoqarashni shakllantirishda o'qituvchidan katta pedagogik mahorat talab qilinadi. Bunda dars o'tish jarayonida turli metodlardan, yangi innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llanish ko'zda tutilgan. Ta'lim berish tizimida qo'lga kiritiladigan natija va uning tarmoqlari turlicha sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lishi mumkin. Ularni aniqlash, tahlil qilish va o'lchash uchun har xil krit eriyalar ishlab chiqilgan. O'quvchilarning bilish ko'nikmasining rivojlanishi bilan bog'liq holda V.P.Bespalko bilim xizmati natijasining to'rt darajasini aniqlagan va ularning ahamiyatini quyidagicha yoritib bergan:

I daraja - tanishish: o'quvchilar boshqa shunga o'xshash obyektlar qatorida ushbu obyektни anglashi, farqlashi, ularni o'zlashtirish qobiliyatlariga qarab farqlanadi. Tanishish

darajasidagi o'zlashtirish ko'pincha o'rganish obyekti haqidagi umumiy qarashlar, fikirlash bo'lsa, suhbat turidagi javoblar «ha - yo'q», «yoki» bilan chegaralanadi.

II daraja - reproduksiya: bu darajada o'quvchilar o'rganish obyekti bilan bog'liq harakatlarni og'zaki bayon qilib berish imkoniyati darajasidagi asosiy tushunchalarni o'zlashtiradi, turli harakatlar va har xil tadbirlarni tahlil qiladi.

III daraja - to'liq o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalar: bunda o'quvchilarning xizmati ba'zi bir sinf ishlarini yechish uchun o'zlashtirilgan ma'lumotlarni amaliyotda qo'llanish va obyektiv yangi ma'lumotlarni egallash ko'nikmalariga ega bo'lishi.

IV daraja - transformatsiya: u o'quvchilarning egallagan bilim, ko'nikma va malakasini qo'llay bilish orqali turlicha qiyinchilikdagi vazifalarni yecha oladigan ma'lumotlarni egallashni ko'zda tutadi.

O'qitish usullari quyidagi bosqichlarga ko'ra tasniflanadi:

1) bilimlarni egallash;

2) ko'nikma va malakalarni shakllantirish;

3) bilimlarni qo'llash;

4) ijodiy faoliyat;

5) bilim, qobiliyat va ko'nikmalarni mustahkamlash; 6) bilim, ko'nikma va malakalarni sinash.

O'quv-tarbiya jarayonining yutug'i o'quvchilarning har bir darsga faol qatnashishi bo'lib hisoblanadi. Faollik bo'lsa o'quvchilar o'zlari qiziqib, darslarni qoldirmay, o'qituvchining aytganlarini tinglash, yangiliklar bilan tanishish, ma'lumotlarni eshitish va mavzularni o'z vaqtida tushunib borishga intiladi.

O'quvchilarda bunday xususiyatlarni hosil qilish uchun o'qituvchidan kuchli bilim, izlanish va katta mahorat talab qilinadi.

O'quvchilarning darsga qatnashishini yaxshilash uchun sinalgan usullarning biri:

- darsni muammoviy o'qitish usuli;

- darsning nostandart formasi;

- ilmiy izlanish usuli;

- darslik ustida ishlash;

- masalalar yechish;

- tajriba va topshiriqlarni bajarish.

Ma'lumki oliy ta'lim tizimining dastlabki bosqichi bakalavriat hisoblanib, u yoki bu mutaxassisning uzluksiz ta'lim tizimining o'rta umumiy ta'lim va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi (O'MKHT) o'quv muassasalarida muvaffaqiyatli dars berishlariga kafolat beradi. Jumladan, agar fizika o'qituvchisi sifatida qaraydigan bo'lsak, undan fizikaning umum nazariy, umum kasbiy va mutaxassislik fanlari siklida aks etgan talablarga to'laqonli javob berishi talab etiladi.

Fizika nafaqat fundamental, balki tajribali fan bo'lgani tufayli fizika o'qituvchisi ham mazkur sohalar yuzasidan iloji boricha keng qamrovli nazariy va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim. Demak, o'z-o'zidan ma'lumki, har qanday fizika o'qituvchisidan fizikaning zamonaviy yutiq va kashfiyotlaridan chuqur hamda mustahkam bilimga ega bo'lishi talab etiladi va ushbu jihat zaruriy shartlardan biri hisoblanadi. Ma'lumki jamiyat doim taraqqiyotda bo'lib, uning ko'p qirrali jihatlaridan biri bo'lgan fan-texnika ham uzluksiz taraqqiy etib boradi. Bu degani, ta'limot uchun zarur hisoblangan ilmiy bilim hamda o'quv, bilishga doir ma'lumotlar hajmi ham tinimsiz holda ko'payib boradi. Belgilangan vaqt moboytida jadal suratlar bilan o'sib borayotgan ma'lumotlarni ta'lim jarayonida muvofiqlashgan holda mutanosib aks ettirish uslubiy muammo hisoblanib, uni amalda joriy etilishi uchun fizika o'qituvchisidan samarali uslubiy mahoratga ega bo'lish darajasini taqozo etadi. Yuqorida takidlaganimizdek, bakalavr darajasini olgan fizika o'qituvchisining mehnat faoliyati keng qamrovlidir. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan yana bir jihatga qaytamiz. U ham bo'lsa, o'quv bilish uchun zarur hisoblangan ma'lumotlar hajmi ortishi bilan yuzaga kelgan uslubiy muammoni muvaffaqiyatli (ijobiy) hal etilishi fizikadan mustaqil ta'limning jarayonini ilmiy asosda tashkil etilishi bilan bog'liq. Ushbu jihat ta'limning uzluksiz xarakterda bo'lishini yana bir bor tasdiqlaydi. Fizika o'qitish uslubiyotining samarali bo'lishi nuqtayi nazaridan qaraydigan bo'lsak fizikani o'quvchiga qayta o'rgatish emas, balki o'rgatishni uzil - kesil nihoyasiga to'liq yetkazmaslikni, kelajakda uni yana davom etdirishni afzal ko'radi. Demak, fizika o'qituvchisining uslubiy tayyorgarligi va o'qitish uslubiyotining samaradorligida ushbu jihat ustuvor hisoblanadi. Globallashgan sharoitda o'rganiladigan o'quv uslubiy fanlarning o'zaro aloqadorligi (hamkorligi) o'ta zarur hisoblanadi. Bugungi kunda ayni bir fan doirasida istalgan bir voqea yoki hodisani to'laqonli tushuntirib berish imkoniyati ko'p hollarda o'z kuchini yo'qotmoqda. Shu bois integrativ yondashuv zamonaviy ta'lim tizimida muhim rol o'ynamoqda.

Zamonaviy o'qitish usullari mustaqil fikrlash, yangi vaziyatda harakat qilish, muammolarni hal qilishda o'z yondashuvlarini topish va tinglovchilar bilan ishbilarmonlik aloqalarini o'rnatish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratmoqda.

Ta'lim jarayonida zamonaviy usullardan foydalanish natijasida o'quvchilarning o'quv jarayoniga bo'lgan hissiy munosabati, o'quv faoliyatining motivatsiyasi, yangi bilim, ko'nikmalarni egallashga qiziqish va ularni amalda qo'llash talabalarning ijodiy qobiliyatlarini, og'zaki nutqini rivojlantirish, o'z nuqtai nazarini shakllantirish va ifoda etish qobiliyatini oshiradi, fikrlashni faollashtiradi. O'qituvchilarda ijodkorlikni shakllantirishning muhim pedagogik sharti uni mustaqil bilim olish va ijodiy fikirlashga yonaltirishdan iborat. Shu bilan bir qatorda, o'qituvchilar orasida ijodiy muhit, muayyan ma'naviy-ruhiy holat, tashkiliy, metodik, psixologik chora-tadbirlar qo'llashga ham alohida e'tibor qaratish lozim.

Kasb-hunar ta'lim tizimida fizika fanini o'qitishda sifat samaradorligiga erishishda fizik bilimlarni nazorat qilish va hisobga olish kabi ko'plab masalalar uslubiy tayyorgarlikda o'z aksini topishi lozim.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. G'aniyev "Fizika" 1,2,3-qismlar. T.:O'qituvchi 2008.
2. Sodiqova Sh.M., To'raxonov F. Fizikani o'qitishda pedagogic dasturiy vositalardan foydalanish metodikasi// Uslubiy qo'llanma. -Toshkent, TDTU, 2012. -60 b.
3. Panfilova A.P. Innovatsion pedagogik texnologiyalar: Faol o'rganish: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik / A.P. Panfilov. - M., Akademiya, 2009 y.
- 4.<https://cyberleninka.ru/article/n/fizika-o-qitishda-samaradorlikka-erishish-omillari>
5. Zokirov, S. I., Sobirov, M. N., Tursunov, H. K., & Sobirov, M. M. (2019). Development of a hybrid model of a thermophotogenerator and an empirical analysis of the dependence of the efficiency of a photocell on temperature. Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers, 15(3), 49-57.
6. Горовик, А. А., & Турсунов, Х. Х. У. (2020). Применение средств визуальной разработки программ для обучения детей программированию на примере Scratch. Universum: технические науки, (8-1 (77)), 27-29.
7. Tursunov, H. H., & Hoshimov, U. S. (2022). TA'LIM TIZIMIDA KO'ZI OJIZ O'QUVCHILARNI INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIDA O'QITISH TEXNOLOGIYALAR. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(5), 990-993.
8. Hamidullo o'g'li, T. H. (2022). HOZIRGI KUNNING DOLZARB IMKONIYATLARI. JAWS VA NVDA DASTURLARI. Scientific Impulse, 1(2), 535-537.
8. Hamidullo o'g'li, T. H. (2022). NEYRON TARMOQLARNING TASNIFI. Scientific Impulse, 1(3), 757-763.
9. Hamidullo o'g'li, Tursunov Hojiakbar, and Boymuratov Erkin Kamolovich. "IMKONIYATI CHEKLANGAN O 'QUVCHILAR BILAN ISHLASH TAJRIBASI." Scientific Impulse 1.7 (2023): 648-653.
10. Mamanovich, R. K. (2021). Components of political culture in political processes. *Academica: an international multidisciplinary research journal*, 11(2), 953-959.
11. Ramazanovich, M. N., & Kabilovich, B. O. (2021). Constitutional and Legal Framework for Providing International Peace. *Middle European Scientific Bulletin*, 18, 218-220.
12. Расулов, Х. (2021). Ҳуқуқий маданият: муаммонинг ижтимоий-сиёсий омиллари. *Общество и инновации*, 2(10/S), 335-342.
13. Ramazanovich, M. N., & Abdunazarovich, P. B. (2021). Protection of Family and Youth in the Constitution of the Republic of Uzbekistan. *Middle European Scientific Bulletin*, 18, 221-223.

14. Расулов, Х. М. (2021). ВЫБОРНЫЙ ЯВЛЕНИЕ И ПРОБЛЕМА СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЭЛЕКТРОКУЛЬТУРЫ НАСЕЛЕНИЯ. Восточно-европейский научный журнал, (11-6 (75)), 28-32.

15. Rasulov, H. M. (2021). ELECTION PHENOMENON I THE PROBLEM OF IMPROVING THE ELECTRIC CULTURE OF THE POPULATION. ВОСТОЧНО ЕВРОПЕЙСКИЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ, 75(part 6), 28.

16. Ramazanovich, M. N., & Kabilovich, B. O. (2021). Constitutional and Legal Framework for Providing International Peace. Middle European Scientific Bulletin, 18, 218-220.

17. Хакимова, М. (2021). Ўзбекистонда миллатлараро тотувликни таъминлаш соҳасидаги устувор йўналишлар. Общество и инновации, 2(10/S), 261-267.

18. Ramazanovich, N. M., & Abdurasulovich, E. B. (2022). CONSTITUTIONAL STATUS OF POLITICAL PARTIES. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 3(11), 79-88.

19. Ramazanovich, N. M., & Abdurasulovich, E. B. (2022). PROCEDURE FOR REGISTRATION OF PUBLIC ASSOCIATIONS. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(11), 740-746.

20. Ramazanovich, N. M., & Mamanorov, K. (2022). PECULIARITIES OF CONSTITUTIONAL-LEGAL RELATIONS. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 3(11), 89-94.

21. Ramazanovich, N. M., & Alisherovich, A. A. (2022). CONSTITUTIONAL STATUS OF THE FAMILY IN UZBEKISTAN. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(11), 732-739.

22. Ramazanovich, N. M., & Mamanorov, K. (2022). CONSTITUTIONAL-LEGAL RELATIONS, THEIR SUBJECTS, OBJECTS AND TYPES. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(11), 747-756.

23. Normamat Mallaev Ramazanovich. (2022). CONSTITUTIONAL-LEGAL STATUS OF MASS MEDIA. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 3(11), 70–78.

24. Normamat Mallaev Ramazanovich, & Khaitmurod Mamanorov. (2022). PECULIARITIES OF CONSTITUTIONAL-LEGAL RELATIONS. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 3(11), 89–94.

25. Ramazanovich, Mallayev N. "Comparative Analysis of National and Foreign Experiences on the Example of the Constitutional and Legal Basis of Ecological." International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology, no. 2, 2020, pp. 1-5.

26. Normamat Mallaev Ramazanovich, IMPORTANCE AND ANALYSIS OF THE CONCEPT OF CIVIL RIGHTS , Web of Scientist: International Scientific Research Journal: Vol. 3 No. 10 (2022): wos

27. Кушоков, С. (2021). Сополли ва Жарқўтон маданиятида дафн маросимлари. *Общество и инновации*, 2(11/S), 150-154.
28. Kushokov, S. Y. (2021). The Role of Zoroastrianism in the Ancient State of Bactria. *World Bulletin of Social Sciences*, 4(11), 69-72.
29. Yusupovich, K. S. (2020). The Emergence Of Religious Views Is Exemplified By The Southern Regions. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 2(10), 143-145.
30. Yusupovich, K. S. (2021). Қадимий Дафн Маросимларидаги Анъана Жараёнлари Ўзбекистон Жануби Мисолида. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 1(6), 72-77.
31. Сафарали, К. Ю. (2020). Чорвадор Қабилалар Дафн Маросимлари Ва Уларнинг Хусусиятлари. *Взгляд В Прошлое*, 3(4).
32. Сафарали, К. Ю., & Хуррамов, М. (2022). ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИНГ МАЛАЙЗИЯ ҲАМДА ИНДОНЕЗИЯ ДАВЛАТЛАРИ БИЛАН ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ ВА МАДАНИЙ СОҲАЛАРДАГИ ҲАМКОРЛИГИ. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 176-186.
33. Kushokov, S. Y., & Ahmedov, S. (2021). THE STRUCTURE OF TURKISH TRIBES IN CENTRAL ASIA AND ITS HISTORICAL IMPORTANCE. *European Scholar Journal*, 2 (10), 25-27. Of Two Languages, Settlement And Livestock Tribes. *The American Journal of Interdisciplinary*.
34. Kushokov, S. Y., & Ahmedov, S. (2021). THE STRUCTURE OF TURKISH TRIBES IN CENTRAL ASIA AND ITS HISTORICAL IMPORTANCE. *European Scholar Journal*, 2 (10), 25-27. Of Two Languages, Settlement And Livestock Tribes. *The American Journal of Interdisciplinary*